

FIZIKA FANINING O'ZLASHTIRILISHI

O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi

Andijon davlat Pedagogika instituti

Infotmatika va aniq fanlar kafedrasи o'qituvchisi

Bozorboyeva Mubina Jasurbek qizi

Fizika va astronomiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta'lif muassasalarida fizika faniga talab va qiziqishlar pastligi, o'quvchilarda qanday qilib qiziqish uyg'otish mumkinligi va bu vaziyatdagi pedagoglarning juda muhim o'rni haqida so'z boradi. Bundan asosiy maqsad aybdorlarni topish emas balki yechim qidirib, bu muammoni hal qilishdir.

Kalit so'zlar: pedagog, mexanika, ong, kreativ, metod, o'quvchi, ma'suliyat, maqsad, kadr, impuls-plakat metodi, assotsiatsiyalar metodi.

KIRISH

Fizika fanini ko'pchilik o'quvchilar zerikarli qoidalar-u, keraksiz masalalar deb hisoblashadi. Lekin men bu fikrlarini noto'g'ri deb hisoblayman. Chunki fizika juda qiziqarli, ajoyibotlarga to'la fan, uni ich-ichiga kirib borar ekansiz dunyoni anglashni boshlaysiz. Fizika bu butun hayot, bizni o'rab turgan jamiki olamdu.

ASOSIY QISM

Fizikaning maxsus bo'limlaridan biri bu mexanikadur. Mexanika bo'limini yaxshi o'zlashtira olmas ekansiz, boshqa bo'limlarni o'zlashtirish qiyinlashadi. Shuning uchun ham mexanika bo'limining o'rni nihoyatda yuqori deyish mumkin. Harneni boshlanishi bo'lmasa yakuni ham bo'limgani kabi, fizikada ham shunday boshlanishi mexanika bo'limi bo'lsagina yakuni ham albatta bo'ladi. Yakuni qanday bo'lishi har bir o'quvchining o'ziga va albatta unga ko'mak berayotgan pedagogga ham bog'liq. O'quvchining bo'limlarni qay darajada o'zlashtirishi darsning sifati va qay darajada qiziqarli bo'lishiga ham bevosita bog'liqdir. Maktablarda kuzatkanmizki fizika faniga boshqa fanlarga nisbatan qiziqish biroz pastroq. Buning asosiy sabablaridan biri fizika fani to'g'risida noto'g'ri ma'lumotga egaliklaridur. O'quvchilarni aqllariga noto'g'ri ma'lumot qanday singib qoladi? Buning sababchisi pedagog emas, balki o'quvchining o'zidir. Psixologiyada bir tushuncha mavjud ONG o'quvchilar ongiga shunday quyib olganki, fizika juda murakkab va zerikarli fan deya o'zlariga uqtirib olishgan. Bu ma'lumot noto'g'ri ekanligini tushuntira olish,

o‘quvchilarning fikrini o‘zgartirish albatta pedagogning mahoratiga bog‘liqdir. O‘z darslariga ma’suliyat ila qarab, kreativ yondasha olgan o‘qituvchi maqsadiga albatta erishadi. Fizika fanini zaruriyat tug‘ilganda albatta tabiat qo‘ynida o‘tish kerak, agar iloji bo‘lmasa sinf xonani fizika fani uchun moslab tayyorlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Hammamiz bilganimizdek atrof muhit o‘quvchi uchun juda muhim hisoblanadi. Atrof muhit fizika fani uchun mos bo‘lmasa o‘quvchini tasavvur qilish qobiliyati rivojlanmaydi va darsni yaxshi o‘zlashtira olmasligiga ham olib keladi. Ota-onalardan ham shuni iltimos qilish kerakki farzandlari uchun e’tiborli bo‘lishlari doimiy nazorat qilishlari kerak, bu gaplar o‘qituvchilar tomonidan ko‘p aytilgan, ammo men ham bu so‘zlarni aytib o‘tishni lozim topdim. Fizika fanining boshlanishi ham uncha murakkab emas, aynan shu yerida darsni to‘g‘ri o‘ta bilishi, har bir mavzuni hayotiy misollar bilan tushuntirishi lozim. Chunki o‘quvchilar hayotiy va samimiy munosabatlarda eslab qolish qobiliyati ko‘proq rivojlanadi va xotirasidan mustahkam joy oladi. Samimiy munosabat bilan o‘quvchining ruhiyatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsata olasiz. Pedagog bo‘lish uchun psixolog ham bo‘lish kerak, chunki o‘quvchining ko‘ziga qarab uning ichki dunyosida nimalar bo‘layotganini, hayolidan nimalar o‘tyaptiyu nima uchun darsga bee’tibor bo‘lib o‘tiripti, bu savollarning javobini o‘zi anglashga harakat qilishi lozim. O‘quvchi nafaqat o‘quvchi balki hammamiz ham kimdir ahvolimiz haqida so‘raganida hammasi yaxshi deyishga o‘rganganmiz, o‘quvchidan nega bunday qilyapsan yoki nega vazifa qilmading deya do‘srtlari oldida dakki berishlar o‘quvchining ruhiyatiga yomon ta’sir qiladi, buning foydasi yo‘q o‘quvchi baribir savollaringizga javob bersa ham rost javobni topolmaysiz, bahona topishga harakat qiladi. Siz buni bahonaligini bilasiz, bilsangizda hech narsa demang, yana dakki berishni boshlasangiz o‘quvchi sizning darsingizni tark etib ketish haqida o‘ylay boshlaydi. Siz uni tushunishga harakat qiling, u bir oddiygina o‘qish uchun kelgan o‘quvchidir, uning ruhiyatida bo‘layotgan o‘zgarishlar sizni havotirga solayotgan bo‘lsa siz pedagog sifatida maktab psixologlari emas aynan o‘zingiz o‘quvchi bilan shug‘ullaning, agar maktab psixologlari alohida shug‘ullanadigon bo‘lsa, o‘quvchining hayolida men shunday yomonmanmi men bilan alohida shug‘ullanishyapti degan o‘ylar uni qiyinay boshlaydi, bu esa uning bundanda yomon ahvolga tushushiga olib keladi. 45 minut darsning deylik 15 minutini bolaning hayollarini qiyinayotgan o‘ylardan qutulish uchun uning diqqatini darsga yo‘naltira olish uchun bag‘ishlashingiz maqsadga muvofiqli, buning uchun psixologiyadan xabaringiz bo‘lishingiz lozim. Bilamizki fizika darsligi katta sinflarga, o‘quvchi o‘zi bilan tanishayotgan, aqlini taniyotgan davrda o‘tish boshlanadi, bu degani fizika o‘qituvchilaridan katta ma’suliyat va sabr talab etiladi. Aynan bu davrni biz o‘tish davri deb ham ataymiz, bu davrda o‘quvchi biroz o‘zidan yiroqlashadi, olamga boshqa nigoh bilan qarashni hohlaydi, ba’zan o‘yin-kulgiga ham o‘ta berilib ketishi mumkin. Uni

o‘ziga qaytarish oila a’zolari va pedagogning zimmasidagi vazifadir. Ushbu davrda o‘quvchi turli xil mayda narsalarga ham siqilib, o‘zini tushkunlikka tushurib qo‘yishi ham hech gap emas, bu vaziyatdan uni olib chiketa olsangiz, uning sizga va sizning fanningizga bo‘lgan qiziqishi va hurmati oshadi. Bu esa siz maqsadingizga erishyapsiz degani, albatta bu bilan cheklanib bo‘lmaydi. Chunki fizika juda katta fan boshqa bo‘limlarini ham shu zayilda e’tibor bilan o‘rgatib borish lozim. Agar relsdan chiqib ketsangiz o‘quvchi tomonidan bildirilayotgan ishonch va qiziqishni yo‘q qilgan bo‘lasiz. Bu esa sizning muvaffaqiyatsizlingiz hisoblanadi va o‘quvchini qaytib ushbu fanga qiziqtira olmaslingizni bildiradi. Darsni mavzuga aloqador barcha metodlarni qo‘llagan holda qiziqarli boshlab olish muhimdir (har bir mavzu uchun qiziqarli metodlar mavjud albatta) ma’lumot o‘rnida aytib o‘tdim.

Metodlardan bir nechtasidan ko‘rib chiqsak:

1) Impuls-plakat metodi

Har bir ishtirokchi uchun vatman varoqlari va markerlar tayyorlab qo‘yiladi.

1. Stollarning ustiga oxirigacha yetkazilmagan fikrlar yozilgan plakatlar qo‘yilgan: “Ushbu mavzuda meni hammasidan ko‘proq qiziqtiradi”, “Men shuni aniqlashtirmoqchi edimki,” , “Men orttigan bilimlarimniqo‘llayman”, “Ushbu mavzuni o‘rganish jarayonida men..... erishdim”, “Men....to‘g‘risida ko‘proq bilib olmoqchi edim”, “Men uchunmurakkab bo‘ldi”, “Menga....yoqdi”.

2. Iloji bo‘lsa mashq jarayonida xotirjam oast ovozda musiqa yangrab tursin.

3. Ishtirokchilarga barcha plakatlarni aylanib va ko‘rib chiqib boshlab qo‘yilgan fikrlar ustida o‘ylab ko‘rish va shu plakatlarning o‘zida davom ettirib oxirigacha yetkazish taklif etiladi.

4. Taxminan 15 daqiqadan so‘ng plakatlar ilib qo‘yiladi. Fikrlar eshittirib o‘qiladi, kerak bo‘lsa aniqlashtiruvchi savollar beriladi. Ishtirokchilar o‘z fikrlarining ostiga ismlarini yozish yoki anonim bo‘lib qolishini o‘zlar hal qiladilar.

Bu metoddan tabiiy va aniq fanlarni o‘qitishda, o‘quvchilarning bilimlari, qiziqishlarini tekshirish va aniqlash uchun foydalanish mumkin. Anonimlik o‘quvchilar boshqa vaziyatda sükut saqlashni afzal ko‘rib aytmagan fikrlarini bayon etishga ham yordam beradi. Bu mashqda bayon etilgan umidlar Va istaklar o‘qituvchiga kelgusida mashg‘ulotlarni rejalashtirish Va o‘tkazish vaqtida o‘z harakatlarini to‘g‘rilashga umkon beradi. Agar o‘quvchilardan ularning qiziqishlari va qiyinchiliklari to‘g‘risida so‘rab lekin kelgusida bu ma’lumotlarni e’tiborga olmasangiz, ular o‘zlarini qandaydir so‘roq qilingan, biroq jiddiy qabul qilinmagan, odamlardek sezishi mumkin. Ustozlarga bo‘lgan ishonchi yo‘qoladi.

2) Assotsiatsiyalar metodi:

O‘quvchilarning har bir guruhiga bo‘lajak mavzuni o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan so‘s yo‘li gap yozilgan plakat beriladi. Ung quyiga o‘quvchilar ana shu so‘z

yoki gap ularning ko‘zlari oldida gavdalantiradigon tasavvurlarini yozib qo‘yadilar. Masalan: plakatda vertikal yo‘nalish bo‘yicha tanlangan mavzu bilgan bog‘liq bo‘lgan tushuncha yoziladi. Ushbu so‘zning har Bir harfiga ishtirokchilar o‘z tasavvurlarini bayon qiladilar va yozadilar.

Shunga o‘xshash metodlar juda ko‘p har biridan to‘g‘ri foydalana olish kerak. Shundagina barcha o‘quvchilarni diqqatini darsga yo‘naltira olasiz va darsning so‘nggiga qadar miriqib mavzuni tushuntira olasiz. Pedagog hech qachon o‘z vazifasini unitmasligi va doimo asosiy maqsadi yetuk kadrlarni tayyorlash bo‘lishi kerak. Har bir pedagog vijdonan va ma’suliyat bilan yondoshar ekan O‘zbekiston bundanda yuksak marralarni egallaydi.

XULOSA

Bundan kelib chiqyaptiki mamlakatimiz rivoji, nafaqat mamlaktimiz balki o‘z kelajagimiz ham, har bir o‘quvchining va har bir pedagogning mahorati va intilishlariga bog‘liqdir. Asosiy vazifa pedagogning zimmasidadir, har qanday pedagog dunyonи tubdan o‘zgartirib yuborishi mumkin (yaxshi tomonga bo‘lishi ham mumkin, yomon tomoni bo‘lishi ham mumkin). Bu muammoni hali qilish albatta meni qo‘limda emas, balki har bir o‘quvchining va har bir pedagogning o‘z qo‘lida. Shunday ekan pedagoglarning faoliyatida ulkan muvaffaqiyatlar tilab qolamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. “G‘aroyib fizika” kitobi, Tuzuvchi: Iqboljon Po‘latov , Nashr yili : 2020
2. “Fizika o‘qitish metodikasi fanining samaradorligini oshirish yo‘llari” kitobidan , Tuzuvchi: Karlibayeva Guljahon Ermekbayevna , Nashr yili: 2014
3. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/137-fizika>
4. <https://uz.m.wikipediya.org/wiki/Fizika>